

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Qaysi gapda ravish fe'lga bog'lanib kelmagan?

- A) Ular hech narsaga qaramay olg'a yurdilar, oldinda ularni g'alaba kutib turganiga ishonchlari bor edi.
- B) Ta'tildagi ko'pgina qiziqarli voqealar esimda qolgan.
- C) Biroz charchagan qiz yuklarni yengilashtirishga qaror qildi, oldinda ketayotgan yigitlardan yordam so'radi.
- D) Darrov uch yil o'tibdi-yu, ancha ulg'ayibsan.

2. Qaysi javobda paronimi mavjud bo'lgan sifat berilgan?

- A) ahl B) asil
- C) xiyla D) yondash

3. Qaysi juftlikda so'z ma'nosini farqlayotgan tovushlar jarangli-jarangsizligiga ham, til qismlarining harakatiga ko'ra ham farqlanmaydi?

- A) maktab – maqtab B) nodir – sodir
- C) paxta – taxta D) guldor – gulzor

4. Bu g'arib bosh nimalarni ko'rmagan, jigarim.

Ajratilgan so'zda ko'chimning qanday turi mavjud?

- A) sinekdoxa B) metonimiya
- C) metafora D) ma'no ko'chishi yuz bermagan

5. Quyidagi tasviriy ifodalardan qaysi birining ma'nosi noto'g'ri izohlangan?

- A) dala malikasi – makkajo'xori B) baraka urug'i – chigit
- C) dehqonning qanoti – ketmon D) baland cho'qqilar xo'jayini – burgut

6. Berilgan matndagi ajratilgan birikma qanday ma'noda qo'llangan?

- *Bibinarzi, elomonlik bo'lib, oydinlikka chiqaylik, katta bir kutubxona quraman, - dedi ota xomushgina termilib turgan xotiniga.*

- *Niyatingizga yeting, otasi, oydinlikka chiqaylik, iloyim.*

- A) Bahorga yetib olaylik B) Yorug' joyga chiqaylik
- C) Yaxshi kunlarga yetaylik D) Oy yorug'iga o'taylik

7. Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi birida urg'u so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qilmaydi?

- A) Mening dadam – matematik. Matematik masalalarni ishlash biz uchun juda oson.
- B) Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir. Chelakni suvga chuqurroq botir.
- C) Bu – bizning yangi maktabimiz. Yangi uzilgan nonni suvda oqizib yeyish juda gashtli.
- D) Terma jamoamiz navbatdagi g'alabaga erishdi. Baxshilar terma va dostonlarni kuylaydilar.

8. Yaqiniyning "O'q va Yoy" asari qaysi janrning go'zal namunasi hisoblanadi?

- A) tazkira B) munozara
- C) qo'shiq D) masnaviy



9. Qaysi asar Qoraxoniylar davlatining falsafiy-axloqiy yo'riqnomasi sifatida paydo bo'lgan?

- A) "Devoni lug'otit turk" B) "Qutadg'u bilig"
C) "Xamsa" D) "Hikmatlar"

10. "Qissasi Rabg'uziy"da spirtli ichimliklar ichishni qoralovchi aqida tasdig'i uchun qaysi hikoyat keltirilgan?

- A) "Uzum hikoyati"
B) "Sulaymonning qarinchg'a bilan so'zlashgani"
C) "Yilon va qarlug'och hikoyati"
D) "Dovud hikoyati"

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Qaysi javobda qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq imloviy xatolik mavjud?

- A) Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing.
B) Endi o'quvchilarning maktabda yiqqan ballari o'qishga kirishda foyda beradi.
C) She'rim, yana o'zing yaxshisan,
Bog'ga kirsang, gullar sharmanda.
D) Bu ishing bilan obro'yingga putur yetmasin deyman-da!

12. *Akam kecha kelgan odamlarni kutib oldi.*

Ushbu gapda *kelgan* so'zidan keyin vergul qo'yilsa, qanday grammatik o'zgarish kuzatiladi?

- A) gapdagi aniqlovchi undalmaga aylanadi
B) uyushiq bo'lakli sodda gap hosil bo'ladi
C) ajratilgan bo'lakli sodda gap hosil bo'ladi
D) sodda gap qo'shma gapga aylanadi

13. Qaysi javobda imloviy xato yozilgan so'zlar soni ikkita?

- A) Soviq kunlarda sutga asal va bir chimdim dolchin qo'shib ichish foydali. Shu bilan birga dolchin qo'shilgan choy yoki qaxva ham asqotadi.
B) Kecha hayol bilan bo'lib, avtobusda "Zukkolar va landovurlar" kitobimni qoldirib ketibman.
C) Xolbuki, orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.
D) Yaxshilik qilsang, oxirigacha yaxshilik qilgin, zinxor minnat qilma.

14. *Ko'rinmas haqiqat kezib yuribdi,*

Ne ish bo'lsa barin sezib yuribdi.

Mard va sof odamning qalbiga kirib,

Nomard va qo'rzoqdan bezib yuribdi.

Ushbu gapdagi sifatlar haqidagi noto'g'ri fikrni toping.

- A) qarama-qarshi ma'noli sifatlar ishtirok etgan
B) faqat xususiyat belgisini bildiruvchi sifatlar ishtirok etgan
C) tuzilishiga ko'ra sifatning ikki turi ishtirok etgan
D) tub va yasama sifatlar ishtirok etgan



15. Quyidagi gaplarning qaysi birida vergulning qo'yilish sababi boshqalaridan farq qiladi?
- A) Har bir odamning do'stlari oldida burch va mas'uliyatlari borki, ularni ado etish talab qilinadi.
 - B) Insonni ehtiros emas, uning buyuk aqli boshqarishi kerak.
 - C) Har kishikim quyosh chiqquncha uyquda bo'lsa, rizqi kam bo'lur.
 - D) Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir.

16. *Yoshlik hech qachon qaytib kelmaydi, uning g'animatligini biling.*

Ushbu gapda ajratilgan so'z bilan asosdosh bo'la oladigan so'z qaysi gapda ishtirok etgan?

- A) O'sha yillarda Sobir tumanning chekka bir qishlog'ida yashardi.
- B) "Iltijo" hikoyasini o'qir ekan, beixtiyor ko'zi yoshlandi.
- C) Binoiy o'n olti yoshli Boburning jasoratiga qoyil qoldi.
- D) Bahor kelib, daraxtlar kundan kunga chiroy ochib yasharmoqda.

17. Qaysi gapda tovush o'zgarishlari faqat munosabat shakllari ta'sirida yuz bergan?

- A) Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi.
- B) Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi.
- C) Turnalar arg'imchog'i gira-shira osmon ortiga – bulutlar bag'riga singiydi.
- D) Xalq ertaga yaxshiroq yashashni istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerakligini anglashi shart.

18. "Qutadg'u bilig" asari qahramonlari haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A) Kuntug'di saxiylik timsoli
- B) Oyto'ldi adolat timsoli
- C) O'gdulmish boylik, davlat timsoli
- D) O'zg'urmish ofiyat timsoli

19. Adabiyotimizda tuyuq janri aruzning qaysi vaznida yoziladi?

- A) ramali musaddasi maqsur
- B) hazaji musaddasi maqsur
- C) rajazi musaddasi maqsur
- D) mutaqoribi musaddasi maqsur

20. "Qutadg'u bilig" dostonida lashkarboshining qaysi xususiyati boyo'g'liga o'xshatilgan?

- A) tunlari hushyorligi va bedorligi
- B) shiddati
- C) hiyla va tadbirkorligi
- D) qasoskorligi

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. *Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,*

Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,

Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi –

Yurak qo'ri bilan toshni eritar.

Ushbu she'riy parcha haqidagi xato hukmni toping.

- A) to'rtta egali gap mavjud
- B) ikkita ega otlashgan so'z bilan ifodalangan
- C) bitta egasiz gap mavjud
- D) sifatlar to'ldiruvchi, aniqlovchi va ega vazifasida kelgan



22. *Aytar so'zim suvratini, Momo yerim, o'zing berding.*

Ushbu misradagi qo'shimchalar haqidagi noto'g'ri fikrni toping.

- A) O'zaro shakldosh ismning va fe'lining munosabat shakli mavjud
- B) Uchala shaxsga oid egalik qo'shimchasi qo'llangan
- C) Fe'lga xos bo'lgan bitta lug'aviy shakl mavjud
- D) Fe'lga xos ikkita munosabat shakli mavjud

23. *Dehqonchilik sirini professorlar o'rgatgan emas bizga. Paxtakorning o'z kitobi bor. Bu kitob uning ko'kragida.* Berilgan gaplarda ishtirok etgan shaxs otlari haqida noto'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Shaxs otlari to'ldiruvchi, ega va kesimga tobelangan.
- B) Shaxs otlari tub va yasama so'zlar hisoblanadi.
- C) Shaxs otlari bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajargan.
- D) Shaxs otlari tuzilishiga ko'ra bir xil.

Berilgan matndan kelib chiqib, quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Qalam

1. Ajdodlarimiz siyoh bilan yoziladigan qamish yoki savag'ich qalamdan keng foydalanishgan. Bu mumtoz adabiyotimizda "xoma" deb tilga olinadi. Qalamning o'q qalam, temir qalam, tosh qalam degan turlari bor. Mo'yqalam tasviriy san'atda ishlatilsa, tosh qalam va temir qalamlardan qattiq jismlarni o'yish, kesish, biror narsani tasvirlash, yog'ochlarga gul solishda foydalanilgan.

2. Qalamning takomil yo'li insoniyatning ravnaq eta borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi madaniyatning ibtidosi qalamga borib taqaladi. Ilk qalam – tosh qalam. Hozir esa eng keng tarqalgan turi sterjenli ruchkadir.

3. Yo'l-yo'lakay bo'lsada, tilimizning boyligini ko'rsatish maqsadida "qalam" so'zining ko'chma ma'nolariga to'xtalib, bir necha misol keltiramiz. Masalan, "qalam ahli" – yozuvchi va shoirlar, jurnalist va olimlar. "Qalami ojiz" – fikrini yaxshi ifodalay olmaydigan. "Qalamqosh" yoki "qoshi qalamlar" – uncha egilmagan qop-qora, chiroyli qoshli suluv. (A. Ibrohimov)

***24.** Qismlarga ajratilgan ushbu matnda qanday xatolik mavjud?

- A) 1-qismda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud.
- B) 2-qismda tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud.
- C) 3-qismda imloviy xatolik mavjud.
- D) 3-qismda tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud.

25. Ushbu matnning 2-qismidagi tire tinish belgisi qanday vazifani bajarmoqda?

- A) Ega va bog'lamasiz kelgan ot-kesim orasiga qo'yilgan.
- B) O'xshatish ma'nosini ifodalagan birliklar orasiga qo'yilgan.
- C) Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qo'yilgan.
- D) Ajratilgan bo'lak ma'nosini izohlash uchun qo'yilgan.

26. Ushbu matnning mazmuniga oid to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) O'tmishda "xoma" yordamida tosh va temirlarga o'yib yozilgan.
- B) Hozirgi kunda eng keng tarqalgan qalam turi mo'yqalamdir.
- C) Tosh qalam va temir qalamlar san'at namunalari yaratishda ham ishlatilgan.



D) “Qalam ahli” deganda qalami ojiz insonlar tushuniladi.

27. Qaysi gapda *hid* soʻzining maʼnodoshi bilan shakldoshlik hosil qiladigan soʻz ishtirok etgan?

- A) Hidi kelsa, mast boʻlaylik handalakning boʻyiga.
- B) Boy boyga boqar, suv soyga oqar.
- C) Boʻylaringdan oʻrgilay, bolajonim, seni koʻrar kun ham bor ekan-ku!
- D) U boʻlib oʻtgan ishlarning isini chiqarmaslikka qaror qildi.

28. “Qissasi Rabgʻuziy” asari haqidagi qaysi fikr notoʻgʻri?

- A) “Luqmon va uning xojasi” hikoyatida til odobi va qalb pokligi alohida oʻrin tutadi.
- B) Sulaymon haqidagi qissada bir necha hikoyat, latifa, bayt, gʻazal va boshqa janr namunalari uchraydi.
- C) Dovud haqidagi hikoyatda halollikka, oʻz mehnati bilan kun koʻrishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash asosiy maqsad hisoblanadi.
- D) “Uzum hikoyati”da asosiy qahramon Shayton hisoblanadi.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan quyidagi parcha asosida navbatdagi topshiriqlarni bajaring.

*Kishining bu vaqt ikkidur holati,
Erur aqli yo nafsining quvvati.*

*Agar aqligʻa quvvat oʻldi fuzun,
Boʻlur yaxshi ishlar sori rahnamun.*

*Vale olam ahlida bu ozdur,
Ulusdin agar boʻlsa mumtozdur.*

29. Ushbu baytlarda ilgari surilgan fikr haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.

- A) Birinchi baytda insonning ikki xil tanlovi borligi koʻrsatilgan.
- B) Ikkinchi baytda insonni doimo aql boshqarishi haqida fikr yuritilgan.
- C) Uchinchi baytda xalqni aqlilar boshqarishi haqida aytilgan
- D) Birinchi baytda aql va nafsga boʻysunmaslik haqida aytilgan.

30. Ushbu baytlar haqidagi toʻgʻri fikrni aniqlang.

- A) ham unli, ham undosh tovushning raviy boʻlib kelishi kuzatiladi
- B) ham radifli, ham radifsiz qofiya uchraydi
- C) ham mutlaq, ham muqayyad qofiya uchraydi
- D) a-a, b-a, d-a shahklida qofiyalangan

